

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekanini professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Миришаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING	
IQTISODIY-IJTIMOIIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE	
ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI	
MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING	
XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyeвна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	
IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN	
FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH	
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING	
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB	
CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ	
ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэлевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI	
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI	
INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY	
JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR	
TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY	
HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING	
SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI	
TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadridin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYLLARIGA UYG'UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPAIYALARDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O'RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug'affarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O'rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI" TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko'ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOIYLLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYLLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYLLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPAIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA'MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'rozov Azamat Otaboyevich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy rivojlanishidagi o'ziga xosliklar, hududlararo tafovutlar va ularni belgilovchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion faollik, infratuzilma va inson kapitali hududiy farovonlik darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: hududlar, investitsion faollik, infratuzilma, rivojlanish, inson kapitali, hududiy farovonlik.

Аннотация

В статье проанализированы особенности экономического развития регионов Республики Узбекистан, межрегиональные различия и определяющие их факторы. Также инвестиционная активность, инфраструктура и человеческий капитал рассматриваются как основные факторы, определяющие уровень регионального благосостояния.

Ключевые слова: регионы, инвестиционная активность, инфраструктура, развитие, человеческий капитал, региональное благосостояние.

Abstract

The article analyzes the peculiarities of the economic development of the regions of the Republic of Uzbekistan, interregional differences and their determining factors. Also, investment activity, infrastructure and human capital are indicated as the main factors determining the level of regional prosperity.

Keywords: regions, investment activity, infrastructure, development, human capital, regional prosperity.

KIRISH

Globalashuvdan so'ng, ko'proq mintaqaviy klasterlar global autsorsing yoki offshoring (egallik nazoratini saqlab qolgan holda ishlab chiqarishni global miqyosda ko'chirish) rivojlanib kelmoqda. Jahondagi iqtisodchilar ishlab chiqaruvchilar va biznes strateglari ishlab chiqarish faoliyatining global o'zgarishining asosiy dinamikasini hamda bu innovatsiyalar va raqobatbardoshlikka qanday ta'sir qilishini tushunish uchun nazariy asoslarni izlamoqda. Xalqaro S&T reytingida top-100 likdagi Tokyo-Yokohama, Shenzhen-Hong Kong-Guangzhou, Beijing sanoat klasterlari 2024 reytingida kuli 5 talikka kirganliklari, Osiyo mamlakatlarida sanoat klasterlarini rivojlantirish amaliyotini rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda hududlarda sanoatni rivojlantirish, innovatsion markazlarni tashkil etish, klasterlarni tashkil etish asosida sanoatni rivojlantirish jarayonini tadqiq etishda sanoatni hududiy joylashtirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, sanoat klasterlari umumiy xulq-atvorning turli jihatlari, geografik joylashuv, innovatsiyalar manbalari, umumiy etkazib beruvchilar va ishlab

chiqarish omillari, sanoat va mintaqaviy rivojlanishning uzviy bog'liqligi, hududlararo iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, turli iqtisodiy subyektlarning o'zaro manfaatli faoliyatini yo'lga qo'yishda klaster tizimidan foydalanish borasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy muammolarni ilmiy o'rganish va ularni bartaraf etish masalalari doimo iqtisodchi-olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlarini, xususan, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Venables, X.Glenn, P.Krugman, B.Robert [1], M.Fujita [2], B.Shaun, M.Enrayt [3] va boshqalar juda katta hissa qo'shganlar.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev [4], O.G.Dmitrieva, N.Zubarevich, S.V.Kazantsev, I.N.Merenkova [5], A.N.Nosov [6], O.I.Panteleeva, D.Sepik, L.A.Serebryakova va boshqalar hududiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy masalalari, hududiy iqtisodiy o'sish va rivojlanishni boshqarish, mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishini tashxislash, hududiy iqtisodiy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni boshqarish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari iqtisodchi olimlarning bu boradagi ilmiy qiziqishlari sohasi bo'lib kelmoqda. Jumladan, hududiy sanoat majmualarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G'ulomov [7], T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov [8], A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov [10], B.Ro'zmetov [9], Sh.B.Imomov, P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiev, A.A.Qayumov, A.J.Siddiqov [11], I.O.Yakubov [12] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o'rin olgan.

Biroq yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati bevosita mintaqalarni umumijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, hududlarda sanoatni rivojlantirishda klaster mexanizmidan foydalanish masalalari o'rganilmagan. Ushbu maqolada o'rganilayotgan muammoga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi va uning munozarali tavsifga ega ekanligi masalaga yangicha ilmiy yondashuvni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi va tafovutlari kompleks yondashuv asosida baholandi. Metodologiya sifatida hududiy rivojlanishning nazariy modellari — A. Vebberning sanoat joylashuvi nazariyasi, F. Perrouxning rivojlanish qutblari konsepsiyasi, Krugman va Fujita tomonidan ilgari surilgan yangi iqtisodiy geografiya yondashuvlari tahlilga asos bo'ldi. Hududiy statistik ma'lumotlar klasterlash, dinamik taqqoslash va indikatorlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlovchi tahlil usullari orqali o'rganildi. Bunda, yalpi hududiy

mahsulot, jon boshiga YHM, investitsiyalar hajmi va infratuzilma ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida tanlandi. Metodologik yondashuv orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlanib, hududlararo tafovutlarning strukturaviy sabablari chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston hududiy rivojlanishining nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqalarning iqtisodiy dinamikasi turli nazariyalarga mos keladi. Har bir hududning tabiiy resurslari, transport-logistik imkoniyatlari, aglomeratsion afzalliklari, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi va institutsional omillari asosida ularning rivojlanish trayektoriyasi farqlanadi. Shu bois hududlarni nazariy yondashuvlarga muvofiqlashtirish, mamlakatning barqaror iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) joriy narxlarida, mlrd.so'm¹

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2023 yilga nisbata n %
								taktik davr
O'zbekiston Respublikasi	88102,4	250544,6	668038	820536,6	995573,1	1204485	1454574	120,76
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2604,2	8339,9	25523,4	29738,2	35541,6	39166,2	45658,5	116,58
Andijon viloyati	5058,8	15705,4	42623,6	48894,3	62981,4	77337,9	90522,1	117,05
Buxoro viloyati	5131,6	14223,4	35320	43069,7	51728	61242,6	71560,4	116,85
Jizzax viloyati	2439,9	7458,5	20249,8	25632,4	30367	37383,2	43057,9	115,18
Qashqadaryo viloyati	7627,3	20220,7	40829,7	49397,5	57629,1	68648,6	80658,3	117,49
Navoiy viloyati	4580,7	11191,5	51800,6	61118,4	71994,1	88215,4	117297,8	132,97
Namangan viloyati	3968,5	12567,1	32713,2	40269,1	48513,7	58173,7	68915,7	118,47
Samarqand viloyati	7143,4	20481,8	47576	59260,4	68988,6	83149,5	99866,1	120,10
Surxondaryo viloyati	3802,2	12577	27571,6	33591,1	39201,8	46999,2	54354,1	115,65
Sirdaryo viloyati	1856,9	5628,1	14285,1	16865,1	20155,6	24001,7	28003,3	116,67
Toshkent viloyati	8347,3	24435,7	70691,6	91317,3	103244,8	121442,6	146385,2	120,54
Farg'ona viloyati	6209,9	18988,4	43413,1	55831,9	65516,9	78009	91333	117,08
Xorazm viloyati	3197	9971	23531,8	29737,2	37474,3	43666,7	51261	117,39
Toshkent shahri	11863,8	34080	107474,4	139396,8	172469,3	215099,2	281147,4	130,71

2024-yilda O'zbekistonning barcha hududlarida yalpi hududiy mahsulot hajmi 2023-yilga nisbatan ko'paydi, kamayish kuzatilmadi. Eng katta o'sish Navoiy viloyati

¹ Muallif ishlanmasi


(+32,9%) va Toshkent shahrida (+30,7%) qayd etildi. Bu hududlarda sanoat korxonalari ko'pligi, yirik investitsiyalar, xizmat ko'rsatish va infratuzilmaning rivojlanganligi asosiy sabab bo'lib xizmat qildi.

Umuman, mamlakat bo'yicha o'sish darajasi +20,7%ni tashkil etdi. Toshkent viloyati (+20,5%) va Samarqand viloyati (+20,1%) ham yuqori natijalarga erishdi. Bozor va transport yo'llariga yaqinligi ularga qo'shimcha ustunlik berdi.

Andijon (+17,0%), Farg'ona (+17,1%) va Namangan (+18,5%) – ishlab chiqarishning kengayishi va ichki talab hisobiga o'rtacha yuqori sur'atlarda o'sdi. Qashqadaryo viloyati (+17,5%) ham xomashyo bazasi va energetika salohiyati sababli o'rtacha yuqori darajani ko'rsatdi.

Buxoro (+16,9%), Xorazm (+17,4%), Sirdaryo (+16,7%) va Qoraqalpog'iston (+16,6%) ko'rsatkichlari o'rtacha darajada bo'ldi. Bu hududlarda ishlab chiqarish zanjirlarining yangilanishi va transport-logistika imkoniyatlari o'sishni qo'llab-quvvatladi. Eng pastroq, ammo ijobiy natijalar Jizzax (+15,2%) va Surxondaryoda (+15,7%) qayd etildi. Bunga ushbu hududlarda iqtisodiyotning ko'proq qishloq xo'jaligiga tayanishi va sanoatning yetarli darajada rivojlanmaganligi sabab bo'ldi.

Oldingi jadvalda biz yalpi hududiy mahsulot (YHM) umumiy hajmidagi o'sishni ko'rib chiqqan edik. U yerda barcha hududlarda o'sish qayd etilgan, biroq bu ko'rsatkich aholining soniga bog'liq holda real turmush darajasini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli, endi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YHMni tahlil qilish muhim. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sishning aholiga qanday taqsimlanayotganini va farovonlik darajasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.



1-rasm. 2024-yilda O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga YHM¹

¹ Muallif ishlanmasi

2024-yilda O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YHM) 39,1 mln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 18,3 foizga o'sdi. Bu o'sish iqtisodiy faollikning ortishi aholining farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Hududlar kesimida Navoiy viloyati 108,1 mln so'm bilan yetakchilik qilib, o'tgan yilga nisbatan 30,6 foiz o'sishni qayd etdi. Bunda tog'-kon sanoati va energetika tarmog'ining hisssasi katta. Toshkent shahri ham 91,3 mln so'm (+27,4%) bilan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu yerda xizmatlar sohasi, moliya va savdo tarmoqlari asosiy drayverlardir.

2-jadval

Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni (yillik), ming metr kvadrat¹

Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yilda 2023 yilga nisbatan %
								taktik davr
O'zbekiston Respublikasi	8859,2	12052,7	12867,9	14045,5	14612,6	14752,3	15471,8	104,88
Qoraqalpog'iston Respublikasi	452,8	763,6	766,7	814	917,2	909,1	924,9	101,74
Andijon viloyati	658,2	761,7	1355	1190,5	1278,2	1160,4	1333,3	114,90
Buxoro viloyati	639,5	787,5	1299,1	1337,6	1495,8	1499,9	1510,7	100,72
Jizzax viloyati	474,9	531,4	511,5	501,1	544,5	504,3	494,5	98,06
Qashqadaryo viloyati	854,8	1029,2	1022,1	1054,3	1240,5	1035,3	1073,7	103,71
Navoiy viloyati	344,5	599,9	658,5	834,9	889,6	688,4	718,8	104,42
Namangan viloyati	867,3	1055,9	1263,8	1371,8	1399,8	1428,7	1469,1	102,83
Samarqand viloyati	1037,3	1380	782	858,3	493,7	745,8	561,3	75,26
Surxondaryo viloyati	859,4	1147,5	1185,5	1292,6	1301,3	1300,9	1322,9	101,69
Sirdaryo viloyati	353,1	224,9	424	135,9	99,4	83,5	158,3	189,58
Toshkent viloyati	500,4	998,9	1280,9	1515,9	1601	1860,6	1934,6	103,98
Farg'ona viloyati	853,1	1022,7	939,2	1166,5	1313,7	1446,7	1617,4	111,80
Xorazm viloyati	596,8	899,3	694,5	1020,8	1072,9	1187,4	1303,83	109,81
Toshkent shahri	367	850,2	631,2	948,5	920,2	887,6154	1014,6	114,31

¹ Muallif ishlanmasi

Toshkent viloyati (47,5 mln so'm), Buxoro (34,7 mln), Samarqand (23,5 mln) va Namangan (22,2 mln) viloyatlarida ham barqaror o'sish kuzatilgan. Bu hududlarda sanoat, xizmat va qishloq xo'jaligining muvozanatli rivoji farovonlikni ta'minlamoqda. Farg'ona, Andijon, Xorazm, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida jon boshiga YHM o'sishi respublika o'rtacha sur'atlariga mos bo'lib, iqtisodiy kengayish aholining daromadlariga ham ta'sir etmoqda. Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida esa pastroq o'sish qayd etilgan, bu aholining ko'pligi va iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga tayanishi bilan bog'liq.

Jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2024-yilda 10,95 mln so'mni tashkil etib, 12 foizga o'sdi. Namangan viloyati eng yuqori investitsion o'sishni (+276%) qayd etdi, bu sanoat va infratuzilma loyihalarining kengayishi bilan bog'liq. Qashqadaryo, Buxoro, Jizzax, Andijon va Toshkent viloyatlarida ham yuqori sur'atlar kuzatildi. Navoiy va Toshkent shahri yuqori investitsion oqimni saqlab qolib, iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyini mustahkamladi. Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida esa investitsiyalar kamaygani sababli iqtisodiy o'sish sustroq kechdi.

Umuman, ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning barqarorligi hududlarga yo'naltirilayotgan investitsion oqim bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa sanoat va infratuzilma sohalariga kapital qo'yilmalar kelgusida jon boshiga YHMni oshirishda muhim omil bo'lib qoladi.

2024-yilda O'zbekiston bo'yicha foydalanishga topshirilgan uy-joylarning umumiy maydoni 15,47 million kvadrat metrni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,9 foizga oshdi. Bu ko'rsatkich jon boshiga YHM va investitsiya oqimidagi o'sishdan pastroq bo'lsa-da, barqaror rivojlanish borligini anglatadi. Hududlar kesimida qaraganda, eng yuqori natija Sirdaryoda qayd etildi – 2024-yilda uy-joy qurilishi hajmi deyarli ikki barobar ko'paydi (+89,6%). Bu hududda oldingi yillarda qurilish ancha past bo'lgani sababli yangi investitsiyalar tez sezildi. Andijon viloyati ham yaxshi natija ko'rsatib, 14,9 foizlik o'sishga erishdi, bu avvalgi jadvalda qayd etilgan investitsiya oqimlari bilan bog'liq. Farg'ona va Xorazmda ham o'sish yuqori bo'lib, mos ravishda 11,8 va 9,8 foizni tashkil etdi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qurilish barqaror davom etdi: shaharda 14,3 foiz, viloyatda esa 4 foizga o'sish qayd etildi. Namangan va Surxondaryoda o'sish bor, ammo sur'atlari pastroq bo'lib, mos ravishda 2,8 va 1,7 foizni tashkil etdi. Buxoro viloyatida uy-joy qurilishi deyarli o'tgan yilgi darajada bo'ldi (+0,7%), Qoraqalpog'iston Respublikasi esa 1,7 foizlik juda past o'sishni ko'rsatdi. Salbiy natija Jizzax va Samarqandda qayd etildi, jumladan Jizzaxda qurilish hajmi 2 foizga kamaygan bo'lsa, Samarqandda pasayish ancha katta – 25 foiz atrofida. Bu ikki hududda iqtisodiy o'sishning ijtimoiy sektorga ta'siri sustroq kechayotgani seziladi. Uy-joy qurilishi natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikada barqaror o'sish bor, biroq hududlar o'rtasida katta tafovut mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024 yilgi statistik ma'lumotlar asosida klaster tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakat hududlari bir nechta asosiy guruhlariga ajraladi. Birinchi guruh agrar sektorga tayanadigan va o'rtacha iqtisodiy salohiyatga ega hududlardan iborat: Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va qisman Xorazm. Ularning

umumiy xususiyati – YaIM va tashqi savdo hajmining pastligi, aholi katta qismining qishloq xo‘jaligiga bog‘liqligi hamda xizmatlar sohasi va ijtimoiy infratuzilmaning cheklanganligidir.

Ikkinchi guruhni o‘rtacha-yuqori iqtisodiy rivojlanishga ega hududlar – Andijon, Namangan, Farg‘ona, Samarqand va Qashqadaryo tashkil qiladi. Bu hududlarda aholi soni ko‘p, agrar ishlab chiqarish barqaror, kichik tadbirkorlik faoliyati kengayib bormoqda. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida xizmatlar sohasi sezilarli rivojlangan, Samarqand esa ta‘lim infratuzilmasi bilan ajralib turadi.

Uchinchi guruhni resurslarga tayanadigan, yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega hududlar – Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyati tashkil etadi. Navoiy jon boshiga YaIM bo‘yicha respublika yetakchisi, Buxoro agrar-sanoat barqarorligi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari bilan farqlanadi, Toshkent viloyati esa investitsiya va xizmatlar sohasi bo‘yicha yetakchi.

Toshkent shahri alohida “super-klaster” sifatida ajralib chiqmoqda. Uning YaIM hajmi (11863,8 mlrd so‘m), jon boshiga YaIM (91 376 ming so‘m), xizmatlar sohasi (99 219 ming so‘m jon boshiga), tashqi savdo (26 528 mlrd so‘m), qurilish (70 589 mlrd so‘m) va oliy ta‘lim bitiruvchilari soni (54,6 ming nafar) boshqa hududlardan bir necha baravar yuqori.

Demak, 2024-yil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o‘shish nafaqat ishlab chiqarish va YHM ko‘rsatkichlarida, balki ijtimoiy infratuzilma – maktablar va kasalxonalar, tashqi savdo va qurilishda ham sezilmoqda. Hududlar kesimidagi farqlar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, yuqori investitsiya oqimi kuzatilgan hududlarda ijtimoiy rivojlanish ham tezlashmoqda. Shu bois, keyingi bosqichda siyosat nafaqat umumiy o‘shish sur‘atlarini, balki hududlararo muvozanatni ta‘minlashga qaratilishi lozim.

Birinchidan, markaziy hududlar — Toshkent shahri, Navoiy va Samarqand viloyati — mintaqaviy rivojlanishning eng ilg‘or nazariy konsepsiyalariga mos keladi. Toshkent shahri Kristallerning “Markaziy o‘rinlar nazariyasi” va Krugmanning “Yangi iqtisodiy geografiya”si doirasida mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy va intellektual markazi sifatida shakllangan. Bu yerda aglomeratsiya afzalliklari yaqqol ko‘zga tashlanadi: mehnat resurslarining zichligi, xizmatlar sektori xilma-xilligi, bilim spilloverlari va raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi iqtisodiy o‘shishni tezlashtirmoqda. Samarqand viloyati ham o‘zining turizm, servis va ta‘lim tuguni sifatida “rivojlanish qutbi” vazifasini bajarmoqda. A. Hirschmanning “imbalanced growth” konsepsiyasi nuqtai nazaridan, turizm infratuzilmasiga qaratilgan yirik loyihalar dastlab markazda tez o‘shishni yaratib, keyinchalik periferiyaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Navoiy viloyati esa F. Perrouxning “Rivojlanish qutblari” nazariyasi uchun yaqqol namuna bo‘lib, erkin industrial zonasi, tog‘-kon va kimyo sanoati klasterlari orqali atrof hududlarga “tortish va turtki” ta‘sirini uzatmoqda. Shu bilan birga, markaziy hududlarda innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va yashil transformatsiya konsepsiyalari ham keng qo‘llanilmoqda.

Ikkinchidan, resurslarga boy hududlar — Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlari — A. Vebberning “Sanoat joylashuvi” nazariyasi, F. Perrouxning

“Rivojlanish qutblari” konsepsiyasi hamda zamonaviy yashil iqtisodiyot paradigmasi bilan uygʻunlashgan. Masalan, Qashqadaryo viloyati neft-gaz va uglevodorod resurslariga boy boʻlgani sababli Weber nazariyasi mantigʻida xomashyo manbalariga yaqin joylashgan ogʻir sanoat markazidir. Buxoro viloyati ham tabiiy resurslarga tayanib, neft-gaz, kimyo sanoati va shu bilan birga turizm xizmatlari orqali iqtisodiyotini diversifikatsiya qilmoqda. Bunday hududlarda “rivojlanish qutblari” mexanizmi orqali markaziy loyihalar periferiyaga taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga, global ekologik talablar va iqlim oʻzgarishlari sharoitida yashil iqtisodiyot yondashuvi — energiya samarador texnologiyalar, chiqindi boshqaruvi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish zarur. Bu resursga boy hududlarning barqaror rivojlanishini taʼminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Roberts B. National and regional corporate spatial structure / B. Roberts, A. Murray // *The Annals of Regional Science*. 2002. Vol. 36.;
2. Fujita -M., Krugman P., Venables A.J. *The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade*. — The MIT Press, 2001. P. 384.
3. Enright M. *The Geographical Scope of Competitive Advantage // Stuck in the Region? Changing scales for regional identity* / Ed. By E. Dirven, J. Grocnewegen and S. van Hoof. Utrecht, 1993. P. 87102.
4. Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития // “Корпоративное управление и инновационное развития Севера”. Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 №2;
5. Меренкова И.Н. Диагностика уровня развития сельских территорий // “Региональная экономика: теория и практика”, 2010, №24;
6. Носов А.К. Управление взаимоотношениями в региональной кластерной структуре, связанной цепью поставок. // *Логистика и управление цепями поставок*, 2009, №6;
7. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. — 194 с.;
8. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD — MOLIYA, 2005. — 280 с.;
9. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.....докт. экон. наук. —Т.: 1998;
10. Назаров Ш.Х. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. -Т.: 2016. — 5 б.;
11. Сиддиқов А.Ж. Иқтисодий ислохотларнинг янги босқичида саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Қашқадарё вилояти мисолида) кандидатлик диссертацияси автореферати. -Т., 2006;
12. Якубов И.О. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: ТДИУ, 2016.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**